

## EDITORIAL LEADERSHIP

### Editor-in-Chief:

**Samandar Niyazimbetov**, DSc (History), Professor

### Deputy Editor:

**Mukhriddin Sodirjonov**, PhD (Sociology), Associate Professor  
*Namangan State University*

### Editorial Board:

**Bozorkul Karimov**, PhD (Philosophy), Associate Professor  
*Bukhara State Technical University*

**Dilfuza Rasulova**, DSc (Economics), Professor  
*Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

**Dilshod Sattarov**, PhD (Law), Associate Professor  
*Customs Institute of the State Customs Committee*

**Djamaliddin Musayev**, PhD (Law), Associate Professor  
*Customs Institute of the State Customs Committee*

**Farkhod Abdurakhmonov**, DSc (Economics), Associate Professor  
*Tashkent State University of Economics*

**Ibrohim Ikramov**, PhD (Philosophy), Associate Professor  
*Namangan State University*

**Jasur Gaipov**, PhD (Economics)  
*Tashkent State University of Economics*

**Kamaldin Yunusov**, DSc (Political Science), Professor  
*Andijan State University*

**Kamoliddin Sirojiddinov**, PhD (Economics), Associate Professor  
*Namangan State University*

**Khusan Abuev**, PhD (History), Associate Professor  
*Navoi State University*


**Komiljon Tajibaev**, PhD (Economics)  
*Namangan State University*

**Marapat Akayeva**, PhD (Law), Associate Professor  
*Namangan State University*

**Nurbek Toshkanov**, PhD (Law)  
*Tashkent State University of Law*

**Shavkat Turayev**, PhD (Philosophy), Associate Professor  
*National University of Uzbekistan*

**Ural Khaydarov**, DSc (Economics), Associate Professor  
*Tashkent State University of Economics*



## U.S. AND EUROPEAN PRACTICES IN MANAGING CREDIT RISK IN COMMERCIAL BANKS AND THE PROSPECTS FOR THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN

Nozima Norova <sup>1</sup>.

<sup>1</sup> PhD, Associate Professor, Tashkent International University of Financial Management and Technologies.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18689044>

**Key words:** credit risk management, commercial banks, stress testing, internal rating models, expected credit losses (ECL), IFRS 9, capital planning, risk appetite framework, non-performing loans (NPL).

### ABSTRACT

This study provides a systematic analysis of advanced practices in credit risk management developed within commercial banking systems in the United States and Europe. The research comprehensively examines mechanisms for assessing and controlling credit risk, including credit policy and the risk appetite framework, the application of internal rating and scoring models, stress-testing practices, methodologies for estimating expected credit losses (ECL), and approaches to managing non-performing loans. In addition, the study analyzes the institutional foundations of stress testing and capital planning mechanisms in the U.S. banking system, as well as their integration into the macroprudential supervisory framework. In the European banking context, particular attention is given to the requirements for measuring expected credit losses under IFRS 9, prudential standards applied to internal rating models, and the validation processes conducted by supervisory authorities.

## TIJORAT BANKLARI KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING AQSH VA YEVIROPA TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

**Kalit so'zlar:** kredit risklarini boshqarish, tijorat banklari, stress-testlar, ichki reyting modellari, kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL), IFRS 9, kapitalni rejalashtirish, risk appetite (riskga moyillik) konsepsiyasi, muammoli kreditlar (NPL).

### ANNOTATSIYA

Mazkur ishda tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning AQSh va Yevropa mamlakatlarida shakllangan ilg'or amaliyoti tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kredit risklarini baholash va nazorat qilish mexanizmlari, xususan kredit siyosati va risk appetite konsepsiyasi, ichki reyting va skoring modellarining qo'llanilishi, stress-testlar o'tkazish amaliyoti, kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (ECL) aniqlash metodologiyasi hamda muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlari kompleks tarzda yoritiladi. Shuningdek, AQSh bank tizimida stress-test va kapitalni rejalashtirish mexanizmlarining institutsional asoslari hamda ularning makroprudensial nazorat bilan integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Yevropa bank amaliyotida esa IFRS 9 standartlari doirasida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash talablari, ichki reyting modellariga qo'yiladigan prudensial mezonlar hamda ularning bank nazorati organlari tomonidan validatsiya qilinishi kabi o'ziga xos jihatlar ochib beriladi.

Hozirgi globallashuv jarayoni va moliya bozorlarining jadal rivojlanishi sharoitida tijorat banklari faoliyatida kredit risklarini samarali boshqarish masalasi jahon moliya tizimining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [1]. Kredit operatsiyalari bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etishi sababli, kredit riskining yuqori darajasi banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi hamda umuman moliya tizimi barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz, shuningdek, so'nggi yillarda kuzatilgan pandemiya va geosiyosiy beqarorlik sharoitida kredit risklarining yetarli darajada boshqarilmaganligi banklar faoliyatida sezilarli yo'qotishlarga olib kelgani jahon tajribasida yaqqol namoyon bo'ldi [2]. Shu bois rivojlangan davlatlarda kredit risklarini boshqarishning ilg'or mexanizmlarini joriy etish va ularni doimiy ravishda takomillashtirish ustuvor vazifaga aylangan.

Jahon amaliyotida, xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish bo'yicha kompleks va tizimli yondashuvlar shakllangan. AQSh bank tizimida kredit risklarini boshqarish asosan stress-testlar o'tkazish, kapitalni rejalashtirish, risk appetite tizimini joriy etish hamda kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi [3].

Yevropa bank amaliyotida esa xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS 9 talablari asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (Expected Credit Loss) baholash, ichki reyting modellarini joriy etish va muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi [4]. Mazkur yo'nalishda Bazel qo'mitasi, Yevropa Markaziy banki, Yevropa bank nazorati organi, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi xalqaro institutlar tomonidan ko'plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular kredit risklarini erta aniqlash, yo'qotishlarni minimallashtirish va bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida ham kredit risklarini boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda [5]. Mamlakatda bank sektorini isloh qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga mos risk-menejment tizimini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda bank tizimini transformatsiya qilish, tijorat banklarining risklarni boshqarish salohiyatini oshirish hamda kredit portfeli sifatini yaxshilash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [6].

Xususan, bank-moliya tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda tijorat banklarida zamonaviy risk-menejment tizimini joriy etish, stress-testlar o'tkazish, kreditlash jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash hamda muammoli kreditlar ulushini qisqartirish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan bank nazoratini kuchaytirish, xalqaro moliyaviy standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish va kredit risklarini boshqarish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunda banklarda ichki reyting tizimlarini shakllantirish, kredit monitoringini kuchaytirish hamda risklarni erta aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining nisbatan yuqoriligi, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholashda ma'lumotlar bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi, stress-test va ilg'or modellashtirish usullarining to'liq joriy etilmaganligi banklar faoliyatida risklarni samarali boshqarishga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur holat kredit risklarini boshqarishda AQSh va Yevropa tajribasini chuqur o'rganish hamda ularni O'zbekiston bank tizimi sharoitlariga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning AQSh va Yevropa tajribalari tahlil qilinadi, ularning O'zbekiston bank tizimida qo'llash imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan baholanadi hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish masalasi xalqaro moliya nazariyasi va bank amaliyotida keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda xorijiy, MDH hamda O'zbekistonlik olimlar tomonidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kredit risklari bank faoliyatidagi asosiy xavf omili sifatida talqin qilinadi [7]. Xususan, P. Saunders va M. Cornett "Financial Institutions Management" asarida kredit riskini bank aktivlari sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim risk turi sifatida baholab, uni boshqarishda diversifikatsiya, puxta ishlab chiqilgan kredit siyosati hamda ichki reyting tizimlarining ahamiyatini ta'kidlaydi [8]. Mualliflar fikriga ko'ra, kredit risklarini samarali boshqarish bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

E. Altman tomonidan ishlab chiqilgan bankrotlikni prognozlash modellari kredit risklarini baholashning muhim ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi [9]. Uning tadqiqotlarida moliyaviy ko'rsatkichlar asosida qarz oluvchining to'lovga qobiliyatsizligini oldindan aniqlash imkoniyati asoslab berilgan. Mazkur yondashuv keyinchalik bank amaliyotida skoring va reyting modellarining rivojlanishiga metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar va tavsiyalar ham kredit risklarini boshqarish nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, kredit risklarini boshqarish jarayoni faqat kredit ajratish bosqichi bilan cheklanmasdan, monitoring, stress-test o'tkazish, zaxiralar shakllantirish hamda ichki nazorat tizimlarini ham qamrab olishi lozim. AQSh va Yevropa olimlari tadqiqotlarida stress-testlar hamda kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash mexanizmi kredit risklarini erta aniqlashning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi. Xorijiy tadqiqotlarning ustun jihati kredit risklarini boshqarishda kompleks, tizimli va modellashtirishga asoslangan yondashuvning qo'llanilishidir.

MDH mamlakatlari olimlari, xususan Rossiya va Qozog‘iston ilmiy maktablarida kredit risklari makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida tahlil qilinadi [10]. Masalan, O. Lavrushin kredit risklarini bank tizimi barqarorligiga tahdid soluvchi asosiy omil sifatida baholab, ularni boshqarishda davlat va bank manfaatlarini uyg‘unligini ta‘minlash zarurligini ta‘kidlaydi. I. Balabanov kredit risklarini kamaytirishda kredit portfelini diversifikatsiya qilish va qarz oluvchilarni klassifikatsiya qilish mexanizmlarining muhimligini asoslab beradi [11]. Uning fikricha, bank ichki reglamentlari va samarali monitoring tizimi kredit risklarini pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

MDH olimlari tadqiqotlarida muammoli kreditlar ulushining oshishi bank rentabelligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi alohida qayd etiladi. Shuningdek, restrukturizatsiya va qayta moliyalashtirish mexanizmlari kredit risklarini kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Ushbu tadqiqotlarning kuchli tomoni o‘tish iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganidadir. Biroq, ayrim ishlarda ilg‘or statistik modellar va stress-test mexanizmlariga yetarli e‘tibor qaratilmagan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham bank tizimida kredit risklarini boshqarish masalalari so‘nggi yillarda faol o‘rganilmoqda [12]. Jumladan, Sh.Z. Abdullayev va B.X. Xodjayev ilmiy ishlarida tijorat banklarida kredit risklarini kamaytirishda kredit portfeli sifatini oshirish, qarz oluvchilarni chuqur tahlil qilish hamda monitoringni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan [13]. Mahalliy tadqiqotlarda muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi, kreditlash jarayonida ma‘lumotlar bazasining yetarli emasligi hamda zamonaviy risk-boshqaruv modellari yetishmasligi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatiladi [14]. Shu bilan birga, xalqaro tajribani, xususan AQSh va Yevropa amaliyotida qo‘llanilayotgan mexanizmlarni milliy sharoitga moslashtirish zarurligi ta‘kidlanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar kredit risklarini boshqarishda ilmiy modellashtirish va tizimli yondashuvga tayanadi, MDH hamda O‘zbekiston olimlari esa ko‘proq amaliy muammolar va institutsional omillarga e‘tibor qaratadi. Shu sababli, O‘zbekiston bank tizimida kredit risklarini boshqarishni takomillashtirishda AQSh va Yevropa tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish, xususan stress-testlar, ichki reyting tizimlari hamda muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish masalalarini o‘rganishda tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida kredit risklarini boshqarish amaliyoti taqqoslama tahlil asosida o‘rganilib, ularning institutsional va metodologik xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Bazel qo‘mitasi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Yevropa bank nazorati organining tavsiyalari hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. O‘zbekiston bank tizimi amaliyoti esa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari hamda Markaziy bank ma‘lumotlari asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari asosida kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**


Tadqiqot doirasida tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning AQSh va Yevropa mamlakatlarida qo‘llanilayotgan amaliyoti tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar bank tizimida kredit risklarini boshqarish markazlashtirilgan risk-menejment tizimi, aniq belgilangan risk appetite darajasi, kredit portfelining diversifikatsiyasi hamda muntazam stress-testlar orqali samarali amalga oshirilmoqda. AQSh tajribasida stress-test va kapitalni rejalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi banklarning makroiqtisodiy shoklarga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida kredit risklarini boshqarishda IFRS 9 talablari asosida kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash, ichki reyting modellarini qo‘llash hamda muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarining rivojlanganligi kuzatiladi. Mazkur yondashuv kredit portfelidagi risklarni erta aniqlash va moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish imkonini bermiqda. O‘zbekiston bank tizimi amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda kredit risklarini boshqarish bo‘yicha muayyan institutsional islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Jumladan, kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining mavjudligi, stress-test va ichki reyting tizimlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi bank risklarini boshqarish samaradorligini pasaytirmoqda. Shuningdek, ma’lumotlar bazasining cheklanganligi va kredit monitoringi tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi risklarni erta aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Tahlil natijalariga ko’ra, AQSh va Yevropa tajribasini O’zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xususan, stress-testlarni bosqichma-bosqich joriy etish, ichki reyting va skoring tizimlarini takomillashtirish hamda muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini kuchaytirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil kredit risklarini boshqarishda xalqaro tajribadan oqilona foydalanish O’zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirish hamda bank tizimi barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko’rsatdi.




1-rasm. AQSh, Yevropa va O’zbekiston banklarida stress-testlarning joriy etilish darajasi [15]

Rasmda AQSh, Yevropa mamlakatlari hamda O’zbekiston tijorat banklarida stress-testlarning joriy etilish darajasi taqqoslama tarzda aks ettirilgan. Diagramma ma’lumotlariga ko’ra, AQSh bank tizimida stress-testlar to’liq (100 foiz) joriy etilgan bo’lib, ushbu mexanizm banklarning makroiqtisodiy xatarlar va moliyaviy shoklarga nisbatan barqarorligini ta’minlashda muhim instrument sifatida xizmat qilmoqda.

Yevropa bank tizimida mazkur ko’rsatkich 90 foizni tashkil etadi, bu esa stress-test amaliyoti keng qo’llanilayotganini va bank nazorati tizimiga integratsiyalashganini ko’rsatadi.

O’zbekiston bank tizimida esa stress-testlarning joriy etilish darajasi taxminan 40 foiz atrofida bo’lib, ushbu yo’nalishda ilg’or xalqaro tajribani bosqichma-bosqich implementatsiya qilish zarurligini anglatadi (1-rasmga qarang).



2-rasm. AQSh, Yevropa va O’zbekiston banklarida problemlı kreditlar ulushi [16]

Rasmda AQSh, Yevropa mamlakatlari hamda O‘zbekiston tijorat banklarida problemli kreditlar (NPL) ulushining taqqoslama ko‘rinishi keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan bank tizimiga ega bo‘lgan AQSh va Yevropa mamlakatlarida problemli kreditlar ulushi nisbatan past darajada shakllangan bo‘lib, mos ravishda 3,2 va 2,8 foizni tashkil etadi. Mazkur holat ushbu mamlakatlarda kredit risklarini boshqarishning ilg‘or mexanizmlari, xususan ichki reyting va skoring tizimlari, uzluksiz kredit monitoringi, muntazam stress-testlar hamda muammoli kreditlarni erta aniqlash va restrukturizatsiya qilish amaliyotlarining samarali yo‘lga qo‘yilgani bilan izohlanadi.

O‘zbekiston bank tizimida esa problemli kreditlar ulushining 6,5 foiz darajasida ekanligi kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichning nisbatan yuqoriligi kreditlash jarayonida qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholashda axborot bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi, ichki reyting tizimlarining to‘liq joriy etilmaganligi hamda kredit portfelini monitoring qilish mexanizmlarining cheklanganligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ayrim hollarda muammoli kreditlar bilan ishlash jarayonida kechiktirilgan choralar qo‘llanilishi kredit portfeli sifatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Rasm natijalari shuni ko‘rsatadiki, AQSh va Yevropa tajribasini O‘zbekiston bank tizimi sharoitlariga moslashtirish orqali problemli kreditlar ulushini qisqartirish imkoniyati mavjud. Xususan, kredit risklarini erta aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish, stress-testlarni kengaytirish, ichki reyting tizimlarini takomillashtirish hamda muammoli kreditlar bo‘yicha alohida “workout” mexanizmlarini joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi (2-rasmga qarang).

Ko‘rsatkichlar	AQSh banklari	Yevropa banklari	O‘zbekiston banklari
<b>Kredit riskini boshqarish modeli</b>	Stress-test va kapital rejalashtirish (CCAR)	IFRS 9 (ECL) va ichki reyting modellari	Normativ talablar va monitoring
<b>Risk appetite tizimi</b>	To‘liq joriy etilgan	Keng qo‘llaniladi	Qisman joriy etilgan
<b>Stress-test amaliyoti</b>	Majburiy, muntazam	Majburiy	Bosqichma-bosqich
<b>Ichki reyting tizimlari</b>	Yuqori darajada rivojlangan	Rivojlangan	Yetarli darajada emas
<b>Problemli kreditlar bilan ishlash</b>	Erta restrukturizatsiya	NPL strategiyalari	Asosan kech bosqichda


1-jadval. AQSh, Yevropa va O‘zbekiston banklarida kredit risklarini boshqarish tizimlarining taqqoslama tavsifi [17]

Jadvalda AQSh, Yevropa mamlakatlari hamda O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimlarining asosiy yo‘nalishlari taqqoslama tahlil qilingan. Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, AQSh banklarida kredit risklarini boshqarish asosan stress-testlar va kapitalni rejalashtirishga asoslangan CCAR mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv banklarning makroiqtisodiy shoklar sharoitida moliyaviy barqarorligini baholash hamda kapital yetarililigini ta‘minlash imkonini beradi.

Yevropa bank tizimida esa kredit risklarini boshqarishda IFRS 9 standarti asosida kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash, ichki reyting modellarini qo‘llash hamda NPL (problemli kreditlar) bo‘yicha maxsus strategiyalar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv kredit risklarini erta aniqlash, ehtimoliy yo‘qotishlarni prognozlash va ularni minimallashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston bank tizimida kredit risklarini boshqarish asosan amaldagi normativ talablar va monitoring mexanizmlariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Jadvalda keltirilganidek, risk appetite tizimi hamda ichki reyting modellarining joriy etilishi qisman amalga oshirilgan bo‘lib, stress-testlar bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Shuningdek, muammoli kreditlar bilan ishlash ko‘pincha kech bosqichda amalga oshirilayotgani kredit portfeli sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, AQSh va Yevropa banklarida kredit risklarini boshqarish tizimlari tizimli, modellashtirishga asoslangan va integratsiyalashgan xarakterga ega. O‘zbekiston bank tizimida esa mazkur ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish orqali kredit risklarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud (1-jadvalga qarang).



3-rasm. AQSh, Yevropa va O'zbekiston banklarida ichki reyting tizimlarining rivojlanish darajasi [18]

Rasmda AQSh, Yevropa mamlakatlari hamda O'zbekiston tijorat banklarida ichki reyting tizimlarining rivojlanish darajasi taqqoslama tarzda aks ettirilgan. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, AQSh banklarida ichki reyting tizimlari eng yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 95 foizni tashkil etadi. Mazkur holat kredit risklarini baholashda qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, statistik modellar (PD, LGD) hamda zamonaviy skoring tizimlaridan keng foydalanilayotgani bilan izohlanadi.

Yevropa bank tizimida ichki reyting tizimlarining rivojlanish darajasi 85 foiz atrofida bo'lib, bu IFRS 9 standarti doirasida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash hamda kredit risklarini erta aniqlash mexanizmlarining keng joriy etilganini ko'rsatadi. Yevropa bank amaliyotida ichki reyting modellarining qo'llanilishi bank nazorati organlari tomonidan qat'iy talablar asosida baholanadi va muntazam ravishda validatsiya qilinadi.

O'zbekiston bank tizimida esa ichki reyting tizimlarining rivojlanish darajasi 50 foizni tashkil etadi, bu esa mazkur yo'nalishda mexanizmlar hali to'liq shakllanmaganini anglatadi. Ushbu holat kredit risklarini baholashda ekspert xulosalariga yuqori darajada tayanish, ma'lumotlar bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda statistik modellarni amaliyotga keng joriy etilmaganligi bilan bog'liq.

Umuman olganda, rasm natijalari ichki reyting tizimlarini takomillashtirish O'zbekiston banklarida kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirish, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi (3-rasmga qarang).

Yo'nalish	AQSh va Yevropa tajribasi	O'zbekistonda joriy holat	Qo'llash bo'yicha taklif
Kredit riskini baholash	Ichki reyting va skoring modellari (PD, LGD)	Asosan ekspert baholash	Statistik va skoring modellarini bosqichma-bosqich joriy etish
Stress-testlar	Muntazam va majburiy	Qisman joriy etilgan	Makroiqtisodiy ssenariylar asosida stress-testlarni kengaytirish
Kutilayotgan kredit yo'qotishlari	IFRS 9 (ECL) to'liq qo'llaniladi	Cheklangan darajada	ECL metodologiyasini takomillashtirish
Problemlil kreditlar bilan ishlash	Erta restrukturizatsiya va NPL strategiyasi	Kech bosqichda aralashuv	Maxsus workout bo'linmalarini rivojlantirish
Risk-menejment institutsional tizimi	Mustaqil risk bo'linmalari	Rivojlanish bosqichida	Risk-menejmentning mustaqilligini kuchaytirish

2-jadval. Kredit risklarini boshqarishda AQSh va Yevropa tajribasini O'zbekiston bank tizimida qo'llash imkoniyatlari [19]

Jadvalda kredit risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha AQSh va Yevropa mamlakatlarida qo'llanilayotgan ilg'or amaliyot, O'zbekiston bank tizimida shakllangan mavjud mexanizmlar hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar tizimli ravishda taqqoslangan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kredit risklarini baholash ichki reyting va skoring modellari (PD, LGD, EAD) asosida amalga oshiriladi, O'zbekistonda esa mazkur jarayonda asosan ekspert baholash va an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanilmoqda. Shu bois statistik va skoring modellarini bosqichma-bosqich joriy etish kredit risklarini baholash aniqligi va obyektivligini oshirish imkonini beradi.

Stress-testlar bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSh va Yevropa banklarida ushbu amaliyot muntazam va majburiy xarakterga ega bo'lib, makroiqtisodiy ssenariylar asosida kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlari baholanadi. O'zbekiston bank tizimida esa stress-testlar qisman joriy etilgan. Ularni makroiqtisodiy modellashtirish asosida kengaytirish banklarning turli iqtisodiy shoklarga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda IFRS 9 standarti asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL) to'liq hisobga olinadi va moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi. O'zbekiston bank tizimida ECL metodologiyasi cheklangan darajada qo'llanilmoqda. Uni metodologik va texnik jihatdan takomillashtirish kredit portfelidagi potensial yo'qotishlarni oldindan aniqlash va zaxiralarni adekvat shakllantirish imkonini beradi.

Muammoli kreditlar bilan ishlash yo'nalishida ham AQSh va Yevropa banklarida erta restrukturizatsiya, maxsus NPL strategiyalari hamda alohida "workout" bo'linmalarining samarali faoliyati kuzatiladi. O'zbekistonda esa ko'proq kech bosqichdagi aralashuv amaliyoti ustunlik qiladi. Shu sababli muammoli kreditlar bilan ishlashning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, maxsus bo'linmalar va aktivlarni boshqarish strategiyalarini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, jadval natijalari kredit risklarini boshqarishda AQSh va Yevropa tajribasini O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda kredit portfeli sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi (2-jadvalga qarang).

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqot natijalari tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish bank tizimi barqarorligini ta'minlashda strategik va tizimli ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Kredit portfelining sifati, kapital yetarliligi darajasi hamda likvidlik ko'rsatkichlarining barqarorligi bevosita risk-menejment tizimining mukammalligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida AQSh va Yevropa mamlakatlarida kredit risklarini boshqarish amaliyoti kompleks tahlil qilinib, ularning institutsional va metodologik xususiyatlari o'rganildi. Xususan, mazkur mamlakatlar tajribasida markazlashtirilgan risk-menejment tizimining shakllanganligi, aniq belgilangan risk appetite siyosatining mavjudligi, muntazam ravishda o'tkaziladigan stress-testlar, ichki reyting modellari asosida risklarni kvantifikatsiya qilish hamda muammoli kreditlar bilan ishlashning erta bosqichdagi mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilgani asosiy ustunliklar sifatida namoyon bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSh bank tizimida stress-test va kapitalni rejalashtirish mexanizmlarining to'liq joriy etilishi moliya institutlarining makroiqtisodiy shoklarga nisbatan chidamliligini sezilarli darajada oshirgan. Kapitalning yetarliligi va yo'qotishlarni qoplash salohiyatini oldindan baholash amaliyoti banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yevropa bank amaliyotida esa IFRS 9 standarti asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash tizimining joriy etilgani, ichki reyting modellarining keng qo'llanilishi hamda muammoli kreditlar (NPL) bo'yicha strategik yondashuvning shakllanganligi kredit risklarini erta aniqlash va moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish imkonini bermoqda. Mazkur mexanizmlar risklarni aniqlash, o'lchash va boshqarish jarayonlarining integratsiyalashgan modelini shakllantirgan.

O'zbekiston bank tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda kredit risklarini boshqarish sohasida muhim institutsional va normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, muammoli kreditlar ulushining nisbatan yuqoriligi, stress-test mexanizmlarining yetarli darajada institutsionallashtirilmaganligi, ichki reyting va skoring tizimlarining cheklangan darajada qo'llanilishi, shuningdek kredit monitoringi va ma'lumotlar bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi kredit risklarini boshqarish samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat bank portfelining sifati va kapital barqarorligiga o'rta va uzoq muddatli istiqbolda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida bir qator amaliy yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, kredit risklarini baholash jarayonida ichki reyting va skoring modellari, xususan, qarzdorning defolt ehtimoli (PD), yo'qotish darajasi (LGD) va risk ostidagi ekspozitsiya (EAD) ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda ularni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, banklarda makroiqtisodiy ssenariylar asosida muntazam va majburiy tartibda stress-testlar o'tkazish amaliyotini kengaytirish kapitalni rejalashtirish va yo'qotishlarni prognozlash sifatini oshiradi. Bundan tashqari, IFRS 9 doirasida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (ECL) hisoblash metodologiyasini yanada takomillashtirish, prognozlash modellarini aniqlashtirish va zaxiralarni shakllantirish mexanizmlarini kuchaytirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Muammoli kreditlar bilan ishlashda esa erta restrukturizatsiya mexanizmlarini keng joriy etish, maxsus "workout" bo'linmalarining institutsional salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini natijadorlik ko'rsatkichlari asosida baholash tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, risk-menejment bo'linmalarining institutsional mustaqilligini kuchaytirish, ularni strategik boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish hamda kuzatuv kengashlari darajasida risklar ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, ilg'or xalqaro tajribani O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish asosida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish kredit portfeli sifatini yaxshilash, kapital yetarliligini ta'minlash va bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). *Principles for the Management of Credit Risk*. Basel: Bank for International Settlements.
2. World Bank. *Global Financial Crisis: Overview*.
3. Board of Governors of the Federal Reserve System. *Comprehensive Capital Analysis and Review (CCAR)*.
4. European Banking Authority (EBA). *Guidelines on credit risk management practices and accounting for expected credit losses (ECL)*.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Rasmiy veb-sayt: cbu.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi. *2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi*.
7. Saunders, A., Cornett, M. *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. McGraw-Hill Education.
8. Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. *The Journal of Finance*.
9. Лаврушин, О. И. *Банковский менеджмент*. Москва: КНОРУС.
10. Балабанов, И. Т. *Финансовый менеджмент*. Москва.
11. Abdullayev, Sh. Z. *Bank ishi va bank risklari*.
12. Xodjayev, B. X. *Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish*.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Yillik hisobotlar*.

**RASMLAR VA JADVALLAR MANBALARI**

15. **1-rasm manbasi:** Muallif tomonidan tuzilgan. Federal Reserve, European Banking Authority (EBA) hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida.
16. **2-rasm manbasi:** Muallif tomonidan tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) va Jahon banki (World Bank) ma’lumotlari asosida.
17. **1-jadval manbasi:** Muallif tomonidan tuzilgan. BCBS, Federal Reserve (AQSh), EBA, IFRS 9 hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari asosida.
18. **3-rasm manbasi:** Muallif tomonidan tuzilgan. BCBS, Federal Reserve (AQSh), EBA hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq ma’lumotlari asosida.
19. **2-jadval manbasi:** Muallif tomonidan tuzilgan. BCBS, EBA, IFRS 9, Federal Reserve (AQSh) hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari va ochiq ma’lumotlari asosida.

## ILMIY TAQRIZ

Maqola tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini tizimli tahlil qilish hamda AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasini O'zbekiston bank tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asosda baholashga bog'ishlangan. Mavzuning dolzarbligi global moliya tizimida kuzatilayotgan beqarorlik jarayonlari, makroiqtisodiy shoklar va moliyaviy integratsiyaning chuqurlashuvi bilan bevosita bog'liq. Shu jihatdan tadqiqot tanlangan yo'nalishning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslab beradi. Maqolaning nazariy bazasi yetarli darajada shakllantirilgan. Unda kredit risklarining iqtisodiy mohiyati, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'siri hamda boshqaruv mexanizmlarining institutsional asoslari izchil va mantiqiy ketma-ketlikda yoritilgan. Xorijiy ilmiy manbalar, jumladan bank risk-menejmenti sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar ishlari hamda Bazel qo'mitasi tamoyillariga tayanilganligi tadqiqotning metodologik puxtaligini ta'minlaydi. Adabiyotlar sharhida xorijiy, MDH va mahalliy ilmiy ishlanmalar o'zaro taqqoslangan holda tahlil qilingan bo'lib, bu muallifning ilmiy manbalarni tanlash va ularni konseptual jihatdan integratsiya qilish salohiyatini namoyon etadi. Tadqiqot metodologiyasi aniqlik va izchillik bilan ajralib turadi. Ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, sintez va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan holda AQSh, Yevropa va O'zbekiston bank tizimlarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlari kompleks o'rganilgan. Diagramma va jadvallarning qo'llanilishi empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda analitik xulosalarni asoslashga xizmat qilgan. Ayniqsa, stress-testlar, ichki reyting tizimlari va muammoli kreditlar ulushi bo'yicha taqqoslama ko'rsatkichlar tadqiqotning analitik salmog'ini oshiradi.

Tahlil natijalari mantiqan asoslangan xulosalar bilan yakunlangan. AQSh bank tizimida CCAR mexanizmi doirasida kapitalni rejalashtirish va stress-testlarning to'liq joriy etilgani banklarning makroiqtisodiy shoklarga chidamliligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholangan. Yevropa bank amaliyotida esa IFRS 9 standarti asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash, ichki reyting modellarini qo'llash hamda NPL strategiyalarining rivojlanganligi kredit risklarini erta aniqlash va moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. O'zbekiston bank tizimi tahlili mavjud institutsional islohotlar bilan bir qatorda muammoli kreditlar ulushi, ichki reyting tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda axborot bazasining cheklanganligi kabi tizimli muammolarni ochib beradi. Maqolaning amaliy ahamiyati yuqori. Ilgari surilgan takliflar – ichki reyting va skoring modellarini bosqichma-bosqich joriy etish, stress-testlarni makroiqtisodiy ssenariylar asosida kengaytirish, IFRS 9 metodologiyasini takomillashtirish hamda muammoli kreditlar bilan ishlash bo'yicha maxsus "workout" bo'linmalarini rivojlantirish – bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan aniq institutsional chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, tadqiqotni yanada chuqurlashtirish maqsadida empirik modellashtirish elementlarini kengaytirish, xususan regressiya tahlili yoki ssenariy modellashtirish asosida taklif etilgan mexanizmlarning samaradorligini miqdoriy baholash istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rilishi mumkin.

Umuman olganda, maqola ilmiy yangiligi, metodologik asoslanganligi va amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Unda kredit risklarini boshqarish jarayonining makroprudensial va mikroprudensial darajalardagi o'zaro bog'liqligi konseptual jihatdan ochib berilgan bo'lib, risk-menejment strategik boshqaruv elementi sifatida talqin qilingan. Taqqoslama jadvallar va diagrammalar analitik umumlashtirish vositasi sifatida samarali qo'llanilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini milliy iqtisodiyotning institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish zarurligi asoslab berilgani tadqiqotning strategik ahamiyatini oshiradi. Mazkur ilmiy ish ilmiy talablarga javob beradi va nashr etishga tavsiya etilishi mumkin.

### Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Fundamental Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

**This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.**